

## ISTE`MOL, JAMG`ARISH VA INVESTITSIYA FUNKSIYALARI

**O`rinboyeva Yulduz Pirnazarovna**

I.f.f.dok., dotsent

**Mardonova Sevinch Dobil qizi**

Buxgalteriya hisobi va menejmenti fakulteti

MN – 423 guruh talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo`lgan iste`mol, jamg`arish va investitsiya funksiyalari tahlil qilinadi. Iste`mol funksiyasining asosiy omillari, jamg`arish jarayoniga ta`sir etuvchi omillar va investitsiya faoliyatining iqtisodiy o`sisdagi roli yoritiladi. Shuningdek, ushbu uch funksiyaning o`zaro bog`liqligi va iqtisodiyot barqarorligidagi o`rni muhokama qilinadi.

**Kalit so`zlar:** iste`mol, xarajat, jamg`arma, omonat, investitsiya, funksiya, iqtisodiy barqarorlik, yalpi ichki mahsulot (YaIM), komponent, real foiz stavkasi, nominal foiz stavka, inflatsiya, kapital qo`yilmalar, makroiqtisodiy tahlil, investitsiyalash obyekti.

**CONSUMPTION, SAVINGS AND INVESTMENT FUNCTIONS**

**Annotation:** This article analyzes the functions of consumption, savings and investment, one of the main components of the economy. The main factors of consumer function, factors affecting the savings process and the role of investment activity in economic growth are highlighted. The relationship of these three functions and their role in the stability of the economy are also discussed.

**Key words:** consumption, cost, savings, savings, investment, function, economic stability, gross domestic product (GDP), component, real interest rate, nominal interest rate, inflation, capital investments, macroeconomic analysis, object of investment.

Milliy iqtisodiyotning yaratishdan hosil bo'lgan milliy daromad iste'mol va jamg'arish maqsadlarida ishlatiladi. Iste'mol, jamg'arma va investitsiya bu yalpi ichki mahsulotning ajralmas komponentlari hisoblanadi.

Iste'mol jamiyat iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish jarayonida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlardan foydalanishni bildiradi. Bunda unumli va shaxsiy iste'mol farqlanadi:

➤ Unumli iste'mol bevosita ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lib, ishlab chiqarish vositalari va inson ishchi kuchining iste'mol qilinishini, ya'ni ulardan ishlab chiqarish maqsadida foydalanish jarayonini anglatadi.

➤ Shaxsiy iste'mol deganda, ishlab chiqarish sohasidan tashqarida ro'y berib, bunda iste'mol buyumlaridan bevosita foydalanish tushuniladi.

Iste'mol yakka tartibda va jamoa bo'lib iste'mol qilinadi. Alohida shaxsning o'z ixtiyorida bo'lgan ne'matlarni iste'mol qilishi *yakka tartibdagi iste'mol qilishni*, jamiyat a'zolari turli guruhlarining ne'matlaridan birgalikda foydalanishi *jamoa bo'lib iste'mol qilishni* bildiradi.

Jamg'arma – bu aholi, korxonalar yoki firma daromadlarining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va daromad olish maqsadlarida to'planib borishidir.

Iste'mol va jamg'arma bir – biriga bog'liq ravishda jamiyat iqtisodiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Iste'mol va jamg'arma darajasini belgilab beruvchi asosiy faktor *milliy daromad* hisoblanadi. *Milliy daromad* tarkibida turli soliqlar ham mavjud bo'lganligidan aholi to'lagan soliqlaridan tashqari qoladigan daromadlar iste'mol sarflari va jamg'arma yig'indisiga teng bo'ladi. Bu o'z navbatida ixtiyordagi yoki sof daromad deb ataladi.

Iste'mol va jamg'arma hajmi hamda unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlik *iste'mol va jamg'arma funksiyasi* deyiladi. Iste'mol va jamg'arish funksiyalari makroiqtisodiyotning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, ular aholi va biznes subyektlarining daromadlarini qanday taqsimlashini ifodalaydi. Ushbu funksiyalar iqtisodiyotning umumiy talab va taklif muvozanatini tushunishda muhim o'rin tutadi. Klassik iqtisodchilarning fikriga ko'ra, aholi daromadlari iste'mol va

jamg'arma mablag'larining yig'indisidan iborat ekan, real foiz stavkasining (**Real foiz stavkasi** – bu nominal foiz stavkasidan inflyatsiya darajasi chiqarib tashlangan holda hisoblanadigan foiz stavkasi bo'lib, pulning haqiqiy qiymatini aks ettiradi) o'sishi bilan iste'mol kamayib, pasayishi bilan esa ko'payib boradi.

Investitsiyalar yalpi ichki mahsulotning ikkinchi muhim komponenti hisoblanadi.

Investitsiyalar, boshqacha qilib aytganda kapital qo'yilmalar – bu hali buyumlashmagan, ya'ni moddiy ne'matga aylanmagan lekin ishlab chiqarish vositalariga yo'naltirilgan kapitaldir. O'zining moliyaviy shakliga ko'ra, ular foyda olish maqsadida xo'jalik faoliyatiga qo'yilgan aktivlar hisoblansa, iqtisodiy mohiyatiga ko'ra investitsiyalar yangi korxonalar qurish, uzoq muddat xizmat ko'rsatuvchi mashina va asbob-uskunalarni yakuniy sotib olishga hamda shu bilan bog'liq bo'lgan aylanma kapitalning o'zgarishiga ketgan xarajatlardir. Shuningdek investitsiyalar tarkibiga uy-joy qurilishiga ketgan xarajatlari ham kiritiladi.

Yuqorida keltirilganlarga asolanib investitsiyalarni bir nechta guruhlariga ajratish mumkin. Makroiqtisodiy tahlillarga ko'ra tahlil qilinganda eng ko'p uchraydigan guruhlashda investitsiyalar investitsiyalash obyekti (**Investitsiyalash obyekti** – bu investorlar o'z kapitalini kiritadigan aktivlar, loyihalar yoki iqtisodiy resurslar bo'lib, kelajakda daromad yoki qiymat ortishini ta'minlash uchun mo'ljallangan) ko'ra 3 turga bo'linadi:

1. Ishlab chiqarishga yo'naltirilgan;
2. Tovar – moddiy zahiralarga yo'naltirilgan;
3. Uy – joy qurilishiga yo'naltirilgan investitsiyalar.

Makroiqtisodiy tahlilda investitsiyalar dinamikasini belgilovchi omil sifatida real foiz stavkasi qaraladi. Real foiz stavkasi ortishi bilan investitsiyalar hajmi kamayishini kuzatishimiz mumkin. Chunki investorlar uchun qarz bahosi ortib, ular ko'rsatadigan foyda normasini pasaytirib qo'yadi.

YaIM hajmi oshishi korxonalar foydasining ko'payishiga olib keladi. Korxonalar foydasi investitsiyalarning manbai ekanligini hisobga olsak, bu holatda investitsiya xarajatlari oshadi. YaIM hajmi pasayib ketganda esa, ya'ni iqtisodiy faollik pasayishi

sharoitida bo'sh turgan quvvatlar mavjudligi tufayli, investitsiya xarajatlari pasayib ketadi. Ammo YaIMning davriy tebranishlari, innovatsiyalarni doim ham bir tekisda bo'lmasligi, uskunalarni uzoq muddat xizmat qilishi, iqtisodiy kutishdagi xavflar tufayli investitsiyalar hajmi barqaror bo'lmaydi.

Iste'mol, jamg'arish va investitsiya funksiyalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Masalan, daromadning ortishi iste'molni oshiradi, shu bilan birga jamg'arish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Jamg'arish esa o'z navbatida investitsiyalarga yo'naltiriladi va iqtisodiy o'sishga sabab bo'ladi. Agregat talab va taklif o'rtasidagi muvozanat ushbu funksiyalarning barqarorligini ta'minlaydi.

### **Xulosa.**

Iste'mol, jamg'arish va investitsiya funksiyalari har bir mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismlaridir. Ularning samarali ishlashi iqtisodiy barqarorlik va rivojlanishni ta'minlaydi. Iste'mol talabni shakllantirsa, jamg'arish va investitsiya ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi. Davlat siyosati ushbu funksiyalarning muvozanatini saqlashga qaratilgan bo'lishi lozim, chunki ularning har biri iqtisodiy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri), 09.12.2014 y. //NORMA tizimi
2. **Stiglitz, J.E., & Greenwald, B.C. (2014).** *Creating a Learning Society: A New Approach to Growth, Development, and Social Progress.* Columbia University Press.
3. **Samuelson, P.A., & Nordhaus, W.D. (2010).** *Economics.* McGraw-Hill.
4. **Mankiw, N.G. (2020).** *Principles of Economics.* Cengage Learning.
5. **Keynes, J.M. (1936).** *The General Theory of Employment, Interest, and Money.* Macmillan.
6. **Mishkin, F.S. (2015).** *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets.* Pearson.



7. Makroiqtisodiyot. Dasrlik. G'.E.Zaxidov, M.T.Asqarova, Z.A. Djumayev, L.F.Amirov, H.A. Hakimov. - T.: 2019. - 290 bet. 82 – 96 – betlar.
8. U.A. Madrahimov. Iqtisodiy o'sishga yalpi talab va uning tarkibi ta'siri. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2016 yil
9. Gulyamov S. Makroiqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish. //Iqtisodiyot va ta'lim, 2012, №2, 4-5 b.b
10. Z.Berdinazarov. O'zbekiston amaliyotida makroiqtisodiy muvozanat tahlili. Iqtisodiyot va ta'lim/ 2016, №5, 124 b.
11. B. Valiev "Iqtisodiy o'sish nazariyasining konseptual yondashuvlari". Biznes-Ekspert, 2014 yil № 1-son, 17-18-betlar.
12. <https://arxiv.uz/>
13. <https://docx.uz/>
14. <https://en.m.wikipedia.org/>
15. <https://www.cbu.wordbank.org.>